

Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini olib berguvchi omildir

Husniddin Norqulovich Suvanov

hsuvanov@tersu.uz

Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Milliy kolorit badiiy asarda tarixiylik, milliylik, umuminsoniylik va vatanparvarlik kabi baynalmilal g‘oyalar bosh mezon sifatida aks etib turadi. Ijodkor badiiy asarda koloritni yuzaga chiqishda metodik tamoyillarga puxta bilishi kerak. Bular quyidagicha holatlarda namoyon bo‘ladi. Milliy kolorit atamasining mazmunini aniqlash, asarda milliy koloritning qo‘llanish me’yorini bilish, ijodkorlar asarida milliy koloritning singdirilishida amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishi, muallif nutqning katta ahamiyatga ega ekanligini tushunishi, milliy xarakterga xos xususiyatlar muhimligini anglashi kabi xalq ruhiyatini, psixologiyasini puxta bilishi kerakligi maqolamizning asosiy obyektidir.

Kalit so‘zlar: kolorit, milliy, baynalmilal, tarixiylik, umuminsoniylik, nutq

Color is a factor that reveals the national aspects of the artist and the people

Husniddin Norkulovich Suvanov

hsuvanov@tersu.uz

Termiz State University

Abstract: International ideas such as historicity, nationalism, universality and patriotism are reflected in the nationally colored artistic work as the main criteria. The artist must be thoroughly familiar with the methodical principles of bringing color to the surface in an artistic work. These are manifested in the following cases. The main object of our article is to determine the meaning of the term national color, to know the norms of using national color in the work, to have practical skills in instilling national color in the work of creators, to understand the great importance of the speech, to understand the importance of national character traits, and to thoroughly understand the psyche and psychology of the people.

Keywords: colorful, national, international, historicity, humanity, speech

Badiiy asar xalqona ruhda yozilishi bilan milliy koloritni aks ettiradi. Milliy koloritni aks ettirilgan asarlar tarixiylik ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Tarixiy va milliy ruh

singdirilgan asar zamonaviy tipda yozilgan asarlardan farq qilishi tabiiydir. Milliy ruh va milliy kolorit tasvirlangan asarlar o‘ziga xoslikka ega bo‘ladi. Milliy koloritni o‘zida mujassam etgan badiiy asar millat ruhi bilan tarbiyalangan har qanday kitobxonni o‘ziga jalg qiladi. Kolorit singdirilgan asar kitobxonga ma’naviy, estetik va ruhiy ozuqa beradi. Buning natijasida kitobxon xalq madaniyati, urf-odati, an’analari, tarixiyligi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Bunday badiiy asar milliy-tarixiy mazmunga boy bo‘ladi, shu bilan birga kitobxon qalbidan o‘rin oladi. Milliy qadriyatlar aks ettirilgan badiiy asarni tarjimasi ham bir qancha qiyinchilikka uchraydi. Bugungi kunda yosh o‘zbek nasrida ham milliy koloritni o‘zida ifodalayotgan asarlar juda ko‘p. Albatta, milliy koloritga to‘yingan badiiy asarda tarixiylik, milliylik, umuminsoniylik va vatanparvarlik kabi baynalmilal g‘oyalar bosh mezon sifatida aks etib turishi ma’lum. Yuqorida aytilgan umuminsoniylik g‘oyalari yo‘g‘rilgan asar xalq uchun noyob durdona sanaladi. Milliy-tarixiy kolorit badiiy asarda qanchalik namoyon bo‘lsa, kitobxon ham madaniy, ma’naviy, milliy jihatdan lazzatlanadi.

Bugungi kunda yosh ijodkorlarining asarlarida milliy koloritning qaydarajada aks ettirishi, yosh ijodkorlarning milliy koloritni o‘ziga singdirganligida. Bugungi yoshlar prozasida koloritga xos umummiliy xarakterlar o‘z ifodasini topmoqda. Tipologik kelib chiqishi, geografik joylashuv o‘rni, peyzaj tasviri, nutqi, xarakteri, kiyinishi, urf-odati va taomlarida aks ettirishni davom etmoqda. Badiiy asarning asliyatini yetkazib berish uchun muallifning obrazli nuqtayi nazari muhim. Asarning mohiyatini ochib berishda muallif har bir detalga e’tibor bilan qarashi shart. Detallar kontekstlashuvi real bo‘lsa, asarning sifati va asarga bo‘lgan talab ortadi. Ana shunday ijodkorlarimizdan A.Suyun, N.Chori, S.Tursun, Bibi Robia’ Saidovalar o‘z asarlarida milliylikka xos xalqonalikni tasvirlab kelmoqda.

Milliy koloriti har bir millatning tashqi va ichki ko‘rinishi, ruhiy holati ifodalanadi. Badiiy asarda muallifning koloritni tasvirlashda nutqiy uslubdan me’yorida hamda o‘z o‘rnida foydaladalansa asar tushunarli bo‘ladi. Kolorit aks etgan badiiy asarning mazmunini yetkazish ijodkorning mahoratli ekanligi va so‘z bazasi keng ekanligidan dalolat beradi. So‘zlarni tanlab ishlata olishi va shevaga xos bo‘lgan so‘zlarni ustomonlik bilan qo‘llashida. Milliy mentalitetga mos bo‘lgan asarni yozish ijodkordan ko‘p ilmni talab qiladi. Ijodkor badiiy asarda koloritni yuzaga chiqishda metodik tamoyillarga puxta bilishi kerak. Bular quyidagicha tasniflanadi:

- 1) “milliy kolorit” atamasining mazmunini aniqlash;
- 2) asarda milliy koloritning qo‘llanish me’yorini bilish;
- 3) ijodkorlar asarida milliy koloritning singdirilishida amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishi kerak;
- 4) muallif nutqning katta ahamiyatga ega ekanligini tushunish kerak;
- 5) milliy xarakterga xos xususiyatlar muhimligini anglashi kerak;
- 6) xalq ruhiyatini, psixologiyasini puxta bilishi kerak.

Badiiy asarda koloritning nutqiy xususiyatga xos bo‘lgan realiyalar, dialektizmlar va frazeologik birliklar o‘rin olganligi asar milliyligini orttiradi. Adabiy asarga milliy-tarixiy koloritning singib ketishi asarning etnogenetik jihatini namoyon qiladi. Yana shuni aytish kerakki, millatimiz mentalitetiga xos milliy koloritga to‘g‘ri keladigan umummilliy xususiyatlardan foydalanishi asar sifatini yaxshilaydi. Asarni milliy ruhda yozish ijodkorlar uchun raqobat emas, oddiygina millatga xos urf-odat, kiyinish madaniyati, nutqiy madaniyati kabi bir qancha umumiylar xususiyatlarni ko‘rsatib berishdir. Milliy kolorit millatning kim ekanini tanitguvchi va belgilovchi asosiy omildir. Badiiy asarda tarixiy va milliy koloritga oid ko‘rinishni saqlash va etkazish masalasi har qanday millat vakili uchun muhim vazifadir. Milliy koloritlar aks etgan asarlarda millatning umuminsoniy qiyofasi ifodalaydi.

Kolorit «badiiy asarning alohida xususiyati bo‘lib, qahramonning nutqiy xususiyatlari, ularda ma’lum bir shevaga oid muhit yoki biron bir tildan olingan so‘z va iboralar mavjudligi sababli o‘ziga xoslikni aks ettiruvchi milliy ko‘rinishdir. Shuningdek milliy tili, geografik hududiga mos ko‘rinishlar va boshqalar aks etadi. Yozuvchi asarining o‘ziga xos tasvirlanishi, hissiy kechinmalari yoki lingvistik ko‘rinishining o‘ziga xos xususiyati aks etgan majmuidir. Milliy rang berish masalasi matnning biron bir elementining individual grammatik yoki semantik xususiyatlariga ta’sir qilmaydi, balki butun asarga ta’sir qiladi. Shuningdek asrning strukturasidagi mukammallikni orttiradi. Asarni ijodkor xalq hayotidan olib tasvirlasa asar mazmunga boy bo‘ladi, koloritga xos ko‘rinish ham shuncha yorqin namoyon bo‘ladi.

Badiiy asarning shakl va mazmun o‘zaro birligi, shuningdek aks ettirilgan xalq nutqi va hayoti bilan bog‘liq. Tarixiy hamda milliy koloritning asl mohiyatini ochishda ijodkor quyidagi omillarni asar mazmuniga singdirib yuborish kerak:

- a) urf-odatlar
- b) kiyinish madaniyati
- c) dialektizmlar
- d) xalq nutqi
- e) milliy taomlar
- f) joy nomlari(geografik hududlar)

Bu omillar asarda koloritni ifodalash uchun yetakchi rol o‘ynaydi. Asar sifatli oshiradi. Kolorit xalqning milliy qirralarini ochib beruvchi omildir. O‘sha omillarni yuzaga chiqaruvchi esa badiiy ijodkorlardir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Anvar Suyun “Tafakkur” nashriyoti 2019 yil.
2. Хайруллина А. А. Национально-региональный компонент в содержании обучения иностранным языкам // Иностранные языки в школе. 2013. № 7. С. 24–26.

3. Чепель Н. П. Приемы воссоздания национального колорита оригинала в переводе (на материале перевода романа А.Толстого «Петр Первый » на английский язык) // Вестник Волгогр.гос.ун-та. Сер.2, Языковн. 2010. № 2. С.120–125.

4. Husniddin, Suvanov. "" ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 126-131.Farogat, Nurmuradova, and Buriyev Jamshid. "THE TRAGEDY OF FREEDOM." Archive of Conferences. Vol. 25. No. 1. 2021.

5. Ahmad, Amini Aziz. "THE INTERPRETATION OF AGRICULTURAL WORDS IN" BABURNAMA". " INTERPRETATION 7.12 (2021).